

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 7 579,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2023- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 5,7 % ga o'sdi.



YAHM deflyator indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 109,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,1 % ga yetdi.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi





## YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH

2

2024- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	6 557,3	7 579,8	105,7
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6 336,9	7 375,7	105,7
mahsulotlarga sof soliqlar	220,4	204,1	106,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>6 336,9</b>	<b>7 375,7</b>	<b>105,7</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>1 983,8</b>	<b>2 197,9</b>	<b>103,5</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>1 697,5</b>	<b>1 931,0</b>	<b>108,2</b>
sanoat	1 310,0	1 421,3	104,1
qurilish	387,5	509,7	122,1
<b>xizmatlar</b>	<b>2 655,6</b>	<b>3 246,8</b>	<b>105,7</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	423,8	494,9	106,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	462,1	597,2	113,0
boshqa xizmat tarmoqlari	1 769,7	2 154,7	103,6





Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 3 791,4 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 3,7 % ga yuqoridir.

## 2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



## 2024- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘shish sur‘atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)





## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2023- yil	2024- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,6	97,3
mahsulotlarga sof soliqlar	3,4	2,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>31,3</b>	<b>29,8</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>26,8</b>	<b>26,2</b>
sanoat	20,7	19,3
qurilish	6,1	6,9
<b>xizmatlar</b>	<b>41,9</b>	<b>44,0</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,7	6,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,3	8,1
boshqa xizmat tarmoqlari	27,9	29,2






# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH

5

2024- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 29,8 % ni, sanoat tarmog‘i 19,3 % ni, qurilish 6,9 % ni va xizmatlar sohasi 44,0 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)






## YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

6

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,1 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 1,6 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,8 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,5 f.p.), qurilish tarmog'i – 1,3 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,3 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 1,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yilning yanvar-martida – 0,4 f.p.)ga ko'paydi.

### 2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)






## YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRISH

7

2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,5 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 29,8 %), sanoatda – 104,1 % (19,3 %), qurilishda – 122,1 % (6,9 %), xizmatlar sohasida – 105,7 % ni (44,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 106,5 % (6,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 113,0 % (8,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,6 % dan (29,2 %) iborat bo'ldi.


### Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)





2024- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 109,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 115,7 % va qurilishda – 107,8 % qayd etildi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)





2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 63,0 % ni (2023-yilning yanvar-mart oylarida – 62,6 %), hajmi 4 648,6 mlrd. so‘mni (2023-yilning yanvar-mart oylarida – 3 966,6 mlrd. so‘m) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

## Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

